



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	



MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Iskandarova Munisa Hasan qizi

Toshkent xalqaro universiteti tayanch doktoranti

E-mail: munisaravshanova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy aktivlarning iqtisodiy mohiyati, ularning tijorat banklari faoliyatidagi tutgan o'rni hamda aktivlar sifatini belgilovchi mezonlarning nazariy asoslari kompleks yondashuv asosida yoritilgan. Tadqiqot doirasida moliyaviy aktivlar tarkibi, risk, likvidlik va daromadlilik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, shuningdek, bank aktivlari sifatini shakllantiruvchi asosiy omillar chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tijorat banklarida aktivlar sifati bo'yicha mezonlarning nazariy jihatdan asoslanishi hamda ularning milliy va xalqaro yondashuvlar bilan uyg'unlashuvi ilmiy nuqtayi nazardan baholanadi. Tadqiqot natijalari banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda aktivlar sifatini to'g'ri va tizimli baholash muhim ahamiyat kasb etishini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: moliyaviy aktivlar, iqtisodiy mohiyat, tijorat banklari, sifat mezonlari, risk, likvidlik, daromadlilik, CAMELS, Basel, IFRS 9.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the economic essence of financial assets, their role in the operations of commercial banks, and the theoretical foundations for the formation of asset quality criteria. The study examines the structure of financial assets, the interrelationship between risk, liquidity, and profitability, as well as the key factors influencing asset quality in banking institutions. Particular attention is paid to the theoretical justification of asset quality indicators and their alignment with national and international regulatory approaches. The findings demonstrate that accurate and systematic assessment of asset quality plays a crucial role in ensuring the financial stability and sustainability of commercial banks.

Key words: financial assets, economic essence, commercial banks, quality criteria, risk, liquidity, profitability, CAMELS, Basel, IFRS 9.

Аннотация. В статье комплексно раскрывается экономическая сущность финансовых активов, их роль в деятельности коммерческих банков, а также теоретические основы формирования критериев качества активов. В рамках исследования проводится углублённый анализ структуры финансовых активов, взаимосвязи риска, ликвидности и доходности, а также факторов, формирующих качество банковских активов. Особое внимание уделяется теоретическому обоснованию показателей качества активов и их согласованности с национальными и международными подходами. Полученные результаты подтверждают, что корректная и системная оценка качества активов является ключевым условием обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков.

Ключевые слова: финансовые активы, экономическая сущность, коммерческие банки, критерии качества, риск, ликвидность, доходность, CAMELS, Базель, IFRS 9.

KIRISH

Tijorat banklari faoliyatida moliyaviy aktivlar bankning asosiy resurslari hamda daromad keltiruvchi vositalari sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy aktivlarning iqtisodiy mohiyati, ularning tarkibi, risk darajasi, likvidligi va daromadlilik bank barqarorligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi. Shu bois aktivlar sifatini baholash va ularning samaradorligini oshirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashuvi, kredit portfeli hajmining kengayishi hamda raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi aktivlar sifati masalasining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bank aktivlarining sifat ko'rsatkichlari kredit riskining darajasi



bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu holat banklarning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi¹.

Moliyaviy aktivlar sifatini baholashda xalqaro yondashuvlar, xususan, CAMELS tizimi, Basel qo'mitalarining bank nazorati bo'yicha standartlari hamda IFRS 9 ("Moliyaviy asboblari") standarti bank aktivlarini riskka asoslangan holda baholashni taqozo etadi. Ushbu yondashuvlar doirasida aktivlarni tasniflash, ularning qaytarilish ehtimolini aniqlash, likvidlik darajasini baholash va kutilayotgan zararlarni prognozlashga asoslangan metodologiyalar keng qo'llaniladi².

Shu bilan birga, milliy bank tizimida kreditlarni tasniflash, minimal zaxira me'yorlarini belgilash hamda aktivlar sifatini baholash mezonlari Markaziy bankning amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan. Biroq aktivlar sifatini belgilovchi mezonlarning nazariy asoslari, ularning iqtisodiy mazmuni hamda xalqaro standartlar bilan uyg'unlashuv darajasini chuqur ilmiy tahlil qilishga ehtiyoj mavjud³.

Shu sababli, moliyaviy aktivlarning iqtisodiy mohiyatini, ularning sifat mezonlarini shakllantiruvchi nazariy tamoyillarni hamda milliy va xalqaro baholash yondashuvlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish ushbu tadqiqotning asosiy zaruratini tashkil etadi. Tadqiqot natijalari nazariy bilimlarni boyitish bilan birga, tijorat banklarida risklarni samarali boshqarish, kredit portfeli sifatini oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun amaliy asos yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy aktivlarning iqtisodiy mohiyati va tijorat banklarida ularning sifat mezonlarini shakllantirish masalasi bank ishi va moliya nazariyasida keng yoritilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosan aktivlar sifati, kredit riski, likvidlik va daromadlilik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan.

Xususan, Frederic S. Mishkin o'zining *The Economics of Money, Banking and Financial Markets* asarida moliyaviy aktivlarni bank daromadliliigi va barqarorligining asosiy manbai sifatida talqin qilib, aktivlar sifati kreditlarning qaytarilish darajasi bilan bevosita bog'liqligini asoslab beradi. Muallif bank risklarini boshqarishda aktivlar sifatini baholash markaziy ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi.

Anthony Saunders va Marcia Cornett tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bank aktivlari sifati risk-likvidlik-daromadlilik uchligi asosida baholanib, kredit portfeli sifatining yomonlashuvi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Shuningdek, Peter Rose va Sylvia Hudgins aktivlar sifati va bank rentabelligi (ROA, ROE) o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni empirik tahlillar asosida ochib bergan.

Xalqaro me'yoriy yondashuvlar doirasida Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ishlab chiqilgan Basel III standartlari bank aktivlarini riskka asoslangan holda baholash, kapital va likvidlik talablarini kuchaytirish orqali aktivlar sifatini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, International Accounting Standards Board tomonidan joriy etilgan IFRS 9 standarti moliyaviy aktivlar bo'yicha kutilayotgan kredit yo'qotishlari (ECL) modelini qo'llash orqali aktivlar sifatini real baholash imkonini yaratadi.

Milliy tadqiqotlarda O'zbekiston bank tizimida aktivlar sifatini baholash masalalari Markaziy bank normativ hujjatlari asosida yoritilib, kreditlarni tasniflash, zaxiralar shakllantirish va NPL ko'rsatkichlarini nazorat qilish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar bank aktivlari sifatini oshirish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar moliyaviy aktivlar sifati tijorat banklari barqarorligi, risklarni boshqarish va daromadlilikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi hamda milliy va xalqaro yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarurligini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi tijorat banklarida moliyaviy aktivlar sifatini tizimli baholash, mavjud risklarni aniqlash hamda zaxiralar siyosatini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida ilmiy umumlashtirish, mantiqiy tahlil, taqqoslash, statistik tahlil usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, mavzuni chuqur o'rganish jarayonida mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy maqolalar tahlili asosiy axborot manbai sifatida xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy aktivlar tijorat banklari egaligidagi hamda kelajakda iqtisodiy foyda keltirishi kutilayotgan mablag'lar majmuasini ifodalaydi. Klassik iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy aktivlar "kelgusida pul oqimlarini

1 Mishkin, F. "The Economics of Money, Banking and Financial Markets". — Pearson, 2018. — pp. 210–225.

2 Basel Committee on Banking Supervision. "Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks". — BIS, 2017.

3 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Kreditlarni tasniflash va ularga zaxiralar shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom. — 2023-yil tahriri.



shakllantirishga qodir bo'lgan huquq va talablar yig'indisi" sifatida talqin qilinadi⁴. Jahon bank amaliyotida aktivlar bank tomonidan joylashtirilgan resurslar bo'lib, ular kreditlar, obligatsiyalar, investitsiyalar hamda boshqa moliyaviy vositalar shaklida namoyon bo'ladi.

Bank faoliyatida moliyaviy aktivlar markaziy o'rinni egallaydi, chunki ularning sifati, daromadlilik va qaytarilish darajasi bankning moliyaviy barqarorligi, likvidligi hamda rentabelligini belgilab beradi. Aktivlarning iqtisodiy mohiyati uch asosiy kategoriyaning o'zaro bog'liqligi orqali namoyon bo'ladi: risk, likvidlik va daromadlilik⁵. Risk aktivning qaytmaslik ehtimolini, likvidlik aktivni tez va qiymat yo'qotmasdan pul mablag'lariga aylantirish imkoniyatini, daromadlilik esa aktivning bankka keltiradigan sof moliyaviy foydasini ifodalaydi. Mazkur uchlik bank aktivlarini boshqarishning fundamental tamoyilini tashkil etadi.

Moliyaviy aktivlar sifatining pasayishi kredit risklarining ortishiga, muammoli kreditlar (NPL) ulushining ko'payishiga olib kelishi mumkin⁶. Biroq aktivlarning samarali va tizimli boshqarilishi bank likvidligini mustahkamlash, investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish hamda umumiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois ilmiy adabiyotlarda bank aktivlari moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim poydevor sifatida e'tirof etiladi⁷.

Tijorat banklarining moliyaviy aktivlari ularning mazmuni, risk darajasi, likvidligi va shakllanish manbalariga ko'ra bir qator mezonlar asosida tasniflanadi. Avvalo, aktivlar balans moddalariga bo'yicha guruhlanadi, ya'ni kreditlar, naqd pul va qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa talablar hamda asosiy vositalar ko'rinishida aks ettiriladi. Ushbu tasnif IFRS 9 va Markaziy bank talablariga muvofiq tuziladigan moliyaviy hisobotlarda keng qo'llaniladi.

Keyingi muhim mezon aktivlarni risk darajasi bo'yicha tasniflash hisoblanadi. Ushbu yondashuvda aktivlar past riskli (davlat qimmatli qog'ozlari), o'rta riskli (korporativ obligatsiyalar) va yuqori riskli (iste'mol kreditlari hamda kichik biznes kreditlari) guruhlariga ajratiladi. Risk darajasi bank kapitaliga qo'yiladigan talablarni belgilashi sababli Basel III standartlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, aktivlar likvidlik darajasiga ko'ra naqd va no-naqd (likvid va no-likvid) guruhlariga bo'linadi. Naqd aktivlarga kassadagi pul mablag'lar hamda Markaziy bankdagi hisobvaraqlardagi mablag'lar kirs, no-naqd aktivlarga kreditlar, investitsiyalar va moddiy aktivlar kiradi⁸. Ushbu tasnif bank likvidligini baholashda qo'llaniladigan LCR va NSFR ko'rsatkichlarini hisoblashda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, moliyaviy aktivlar funksional guruhlar bo'yicha quyidagicha tasniflanadi: kredit aktivlari, investitsiya aktivlari va trezor aktivlari (banklararo operatsiyalar, depozitlar hamda mijozlarning moliyaviy instrumentlari)⁹. Har bir guruh bankning risk profili va daromadlilik strukturasi shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda tijorat banklari aktivlarining 70 foizdan ortig'i kredit portfeli ulushiga to'g'ri keladi. Bu holat aktivlar sifatini samarali boshqarish va ularni ilmiy asoslangan holda tasniflash bank faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim shart ekanligini ko'rsatadi¹⁰.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, kredit portfeli sifati va umumiy risk darajasini baholashda moliyaviy aktivlarning sifati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy aktivlar sifati bankning daromad olish imkoniyatlari, risklarni qamrab olish qobiliyati hamda likvidlik darajasini belgilovchi strategik ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda aktivlar sifati bir qator asosiy mezonlar, xususan, qaytarilish darajasi, likvidlik, daromadlilik, tavakkalchilik darajasi, muammoli kreditlar ulushi (NPL — Non-Performing Loans), zaxiralar hajmi hamda coverage ratio orqali tavsiflanadi. Ushbu mezonlarning har biri bankning real moliyaviy holatini aks ettiradi va aktivlarning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqqan holda shakllanadi.

Birinci navbatda, qaytarilish (repayment ability) bank aktivlarining eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Kredit oluvchining qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyati kredit portfelining umumiy sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. F. Mishkin ta'kidlaganidek, qaytarilish mezon bank risklarini aniqlashning markaziy elementi bo'lib, kreditlarning qaytmasligi nafaqat daromadlar kamayishiga, balki likvidlik va kapital yetarliligi ko'rsatkichlarining pasayishiga ham olib kelishi mumkin¹¹. Shu sababli banklar qarz oluvchilarning moliyaviy hisobotlari, pul oqimlari, qarz yuki hamda ta'minot darajasini kompleks baholashga alohida e'tibor qaratadilar.

Ikkinchi muhim mezon — likvidlik, ya'ni aktivlarning qisqa muddat ichida qiymatini yo'qotmagan holda naqd pulga aylanish qobiliyatidir. Basel III standartlariga muvofiq, LCR va NSFR ko'rsatkichlari bankning yuqori likvid

4 Saunders, A. & Cornett, M. Financial Institutions Management. — McGraw-Hill, 2019. — pp. 28–31.

5 Usmonov Q., Xolmedov A. Moliya. — Toshkent: "Iqtisodiyot", 2020. — 112–118-betlar.

6 Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising post-crisis reforms. — BIS, 2017.

7 Rose, P. & Hudgins, S. Bank Management & Financial Services. — McGraw-Hill, 2016.

8 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Likvidlik me'yorlari to'g'risida Nizom. — 2023-yil.

9 Fabozzi, F. Bond Markets, Analysis and Strategies. — Pearson, 2015.

10 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Banklar moliyaviy hisobotlari bo'yicha sharh. — 2024-yil.

11 Mishkin F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. — Pearson, 2019.



aktivlar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi¹². Yuqori likvidli aktivlar, jumladan naqd pul mablag'lari, davlat obligatsiyalari va Markaziy bank hisobvaraqlaridagi mablag'lar bankning to'lovga qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi. Likvidligi past bo'lgan kreditlar esa muammoli kreditlar ulushining oshishiga va qo'shimcha zaxiralar shakllantirish zaruratiga olib kelishi mumkin.

Moliyaviy aktivlarning yana bir muhim jihati — daromadlilik (profitability) hisoblanadi. Tijorat banklari uchun moliyaviy aktivlar nafaqat risk va likvidlik manbai, balki asosiy daromad oqimini ta'minlovchi vosita sifatida ham ahamiyatga ega. To'g'ri shakllantirilgan kredit portfeli bankning foiz marjasini kengaytirish, aktivlar rentabelligini (ROA) oshirish imkonini beradi. P. Rose tadqiqotlarida aktivlar sifati va daromadlilik o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi asoslab berilgan¹³. Ya'ni, sifatli aktivlar ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, bankning barqaror va prognoz qilinadigan daromad olish ehtimoli shunchalik ortadi.

Bank aktivlari sifati, shuningdek, tavakkalchilik darajasi bilan chambarchas bog'liq. Kredit riski, bozor riski, foiz stavkalari riski va likvidlik riski bank balansining har bir tarkibiy qismiga ta'sir ko'rsatadi. CAMELS tizimida aktivlar sifati (A — Asset Quality) bank barqarorligini baholashda eng muhim indikatorlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Risklar darajasi oshgan sari zaxiralar shakllantirish, monitoring va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarurati ham ortadi, bu esa bank tizimining barqaror va ehtiyotkor faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Moliyaviy aktivlar sifati amaliy jihatdan ko'pincha muammoli kreditlar ulushi — NPL (Non-Performing Loans) ko'rsatkichi orqali baholanadi. NPL muddati o'tgan yoki qaytarilishi shubhali bo'lgan kreditlarni ifodalab, bankning kredit riskini aks ettiruvchi muhim indikator hisoblanadi hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

NPL ko'rsatkichining ilmiy mohiyati shundan iboratki, u bankning umumiy kredit portfeli tarkibida muammoli aktivlarning ulushini foiz ko'rinishida ifodalaydi. Ushbu ulushning yuqori bo'lishi kredit portfeli sifatining pasayganini, zaxiralar yetarililigini qayta ko'rib chiqish zaruratini hamda likvidlik darajasiga ehtimoliy bosim mavjudligini anglatadi. Shu bois NPL ko'rsatkichi bank risklarini monitoring qilish va ehtiyotkor kredit siyosatini shakllantirishda muhim signal vazifasini bajaradi.

Matematik ifoda orqali NPL ko'rsatkichi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\text{NPL (\%)} = \frac{\text{Umumiy kredit portfeli}}{\text{Muddatini o'tgani yoki qaytarilishi shubhali kreditlar}} \times 100$$

Masalan, agar bankning umumiy kredit portfeli 100 mlrd so'mni tashkil etib, shundan 10 mlrd so'mi muddati o'tgan yoki qaytarilishi shubhali kreditlardan iborat bo'lsa, NPL ulushi 10 foizni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich bankning kredit riski darajasini hamda kredit portfeli sifatini baholashda muhim indikator hisoblanadi. NPL ulushi bankning zaxira ajratish siyosati, kredit monitoringi tizimi va risklarni boshqarish strategiyasi bilan bevosita bog'liq.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, NPL ko'rsatkichi 5–10 foiz oralig'ida bo'lgan hollarda kredit portfeli nisbatan barqaror va sog'lom deb baholanadi, 10 foizdan yuqori bo'lishi esa bank faoliyati uchun ehtiyot choralarini kuchaytirish zaruratini bildiruvchi signal sifatida qaraladi. Shu bois NPL ko'rsatkichi tijorat banklarida moliyaviy aktivlar sifatini baholash va kredit risklarini samarali boshqarishda keng qo'llaniladigan muhim vosita hisoblanadi.

Shuningdek, moliyaviy aktivlar sifatini baholashda zaxiralar darajasi (loan loss provisions) va coverage ratio muhim ahamiyat kasb etadi. Zaxiralar ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash maqsadida shakllantiriladigan resurslar bo'lib, aktivlar sifatining real holatini yanada aniqroq aks ettiradi. IFRS 9 standarti talablariga muvofiq, zaxiralar har bir kredit bo'yicha kutilayotgan kredit yo'qotishlari (Expected Credit Loss — ECL) modeli asosida shakllantiriladi. Coverage ratio esa ajratilgan zaxiralarning muammoli kreditlarni qamrab olish darajasini ifodalaydi va bankning muammoli aktivlar bilan bog'liq xavflarni yengib o'tish qobiliyatini baholash imkonini beradi.

Shu tarzda, moliyaviy aktivlar sifati qaytarilish darajasi, likvidlik, daromadlilik, tavakkalchilik darajasi, NPL ko'rsatkichi, zaxiralar hajmi hamda coverage ratio kabi mezonlar orqali kompleks tarzda baholanadi.

Umuman olganda, moliyaviy aktivlar sifatini belgilovchi ushbu mezonlar o'zaro chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Qaytarilish va daromadlilik darajasining pasayishi muammoli kreditlar ulushining oshishiga olib kelishi mumkin, bu esa zaxiralar hajmini ko'paytirish va likvidlikni yanada ehtiyotkor boshqarishni taqozo etadi. Aksincha, yuqori sifatli aktivlar bank kapitalini mustahkamlash, risklarni kamaytirish va barqaror daromadni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois tijorat banklari aktivlar strukturasini optimallashtirish, kredit tahlilini chuqurlashtirish, zaxiralash tizimini takomillashtirish hamda Basel III standartlariga muvofiq faoliyat yuritish orqali moliyaviy aktivlar sifatini izchil oshirib borishi maqsadga muvofiqdir.

¹² Basel Committee on Banking Supervision. Basel III Liquidity Framework, 2017.

¹³ Rose P., Hudgins S. Bank Management & Financial Services. — McGraw-Hill, 2018.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatida moliyaviy aktivlarning iqtisodiy mohiyati, ularning bank moliyaviy barqarorligidagi o'rnini hamda aktivlar sifatini shakllantiruvchi asosiy nazariy mezonlar ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari moliyaviy aktivlar bank resurslarining asosiy qismini tashkil etishini hamda ularning sifati bankning likvidligi, daromadlilik, risk darajasi va umumiy moliyaviy barqarorligini belgilovchi hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatdi.

Maqolada moliyaviy aktivlar sifatining nazariy asoslari risk–likvidlik–daromadlilik uchligi orqali ochib berildi va ushbu kategoriyalar o'rtasidagi muvozanat bank aktivlarini boshqarishning fundamental tamoyili ekani asoslab berildi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, aktivlar sifatining pasayishi kredit portfelida muammoli kreditlar (NPL) ulushining ortishiga, zaxiralar hajmining kengayishiga hamda yakuniy natijada bank kapitali va moliyaviy barqarorligining susayishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, moliyaviy aktivlar sifatini baholashda xalqaro yondashuvlar, xususan, CAMELS tizimi, Basel III standartlari hamda IFRS 9 doirasida qo'llaniladigan Expected Credit Loss modeli riskka asoslangan baholash mexanizmlarining ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Milliy bank tizimida Markaziy bank tomonidan belgilangan normativ talablar amaliyotda qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ularning nazariy asoslarini chuqurlashtirish va xalqaro standartlar bilan uyg'unligini yanada kuchaytirish zarurati mavjudligi aniqlab berildi.

Tadqiqot davomida moliyaviy aktivlar sifatini belgilovchi asosiy mezonlar — qaytarilish qobiliyati, likvidlik darajasi, daromadlilik, tavakkalchilik darajasi, muammoli kreditlar ulushi (NPL), zaxiralar hajmi hamda coverage ratio — o'zaro bog'liq bo'lgan kompleks tizim sifatida asoslandi. Ushbu mezonlar bank aktivlarini samarali boshqarish va risklarni kamaytirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, tijorat banklarida moliyaviy aktivlar sifatini oshirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, tijorat banklarida moliyaviy aktivlar sifatini baholashda riskka asoslangan yondashuvni yanada kuchaytirish, kredit portfelini shakllantirish jarayonida qarz oluvchining pul oqimlari, qarz yuki va biznes faoliyatining barqarorligini chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, NPL ko'rsatkichini boshqarishda faqat miqdoriy baholash bilan cheklanmasdan, muammoli kreditlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan proaktiv kredit monitoring tizimini joriy etish zarur.

Uchinchidan, IFRS 9 doirasida Expected Credit Loss modelini amaliyotda to'liq va sifatli qo'llash, zaxiralar siyosatini aktivlar sifati hamda risk darajasiga mos ravishda shakllantirish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, Basel III talablariga muvofiq yuqori likvidli aktivlar ulushini oshirish, LCR va NSFR ko'rsatkichlarini strategik boshqaruv darajasida nazorat qilish banklarning to'lovga qobiliyatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, milliy bank nazorati tizimida aktivlar sifatini baholash mezonlarini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish hamda ilmiy asoslangan indikatorlar tizimini joriy etish bank sektorining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, moliyaviy aktivlarning iqtisodiy mohiyatini chuqur anglash va ularning sifat mezonlarini ilmiy asosda shakllantirish tijorat banklarida risklarni samarali boshqarish, kredit portfeli barqarorligini ta'minlash hamda bank tizimining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mishkin, F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. — Pearson, 2018. — 210–225-betlar.
2. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks. — BIS, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Kreditlarni tasniflash va ularga zaxiralar shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom. — 2023-yilgi tahrir.
4. Saunders, A., Cornett, M. Financial Institutions Management. — McGraw-Hill, 2019. — 28–31-betlar.
5. Usmonov Q., Xolmedov A. Moliya. — Toshkent: "Iqtisodiyot", 2020. — 112–118-betlar.
6. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. — BIS, 2017.
7. Rose, P., Hudgins, S. Bank Management & Financial Services. — McGraw-Hill, 2016.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Likvidlik me'yorlari to'g'risida Nizom. — 2023-yil.
9. Fabozzi, F. Bond Markets: Analysis and Strategies. — Pearson, 2015.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Banklar moliyaviy hisobotlari bo'yicha sharh. — 2024-yil.
11. Mishkin, F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. — Pearson, 2019.
12. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III Liquidity Framework. — BIS, 2017.
13. Rose, P., Hudgins, S. Bank Management & Financial Services. — McGraw-Hill, 2018.
14. Federal Reserve System. CAMELS Rating System Manual. — 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>